



KONCHILAR HAYOTI

Gazeta 1991-yildan chiqa boshlagan

№18 (804), 2025-yil 29-sentabr

facebook.com/nkmkofficial

t.me/ngmkofficial

instagram.com/nkmk.official

www.ngmk.uz



■ Ilmiy-texnik anjuman

ILM-FAN VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI

iqtisodiy rivojlantirishning muhim omilidir

Joriy yilning 24-25-sentabr kunlari Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tashkil etilganligining 30 yilligiga bag'ishlab "Zarafshon mintaqasini kompleks innovatsion rivojlantirish: yutuqlar, muammolar va istiqbollar" mavzusida VI xalqaro ilmiy-texnik anjuman "Ilm-fan va ishlab chiqarish integratsiyasi iqtisodiy rivojlantirishning bosh va muhim omilidir" shiori ostida bo'lib o'tdi.



Keyingi yillarda yangi ilmiy ishlanmalarni rag'batlantirish, umuman bu boradagi faoliyatni yanada takomillashtirish bo'yicha yetarli tajriba to'plandi. Zarafshon hududining innovatsion rivojlanishi nafaqat mahalliy iqtisodiyot, balki milliy

nologik plattformasi, geomexanik ma'lumotlarni sun'iy intellekt texnologiyalari yordamida qayta ishlash mavzularida ma'ruza qildilar.

Xorijiy olimlarning ma'ruzalari, jumladan, no'yob yer elementlarining qiymat zanjiridagi roli, oltin konlarini yer osti usulida qazib olishning innovatsion texnologiyalari va geomexanik ma'lumotlarni sun'iy intellekt yordamida qayta ishlash kabi mavzularga bag'ishlandi. Bu esa, xalqaro hamkorlikning aniq maqsadga yo'naltirilganini va tomonlar O'zbekiston sanoatining dolzarb muammolarini hal etishga birgalikda kirishayotgani ko'rsatadi.

Shundan so'ng Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universitetining muzokaralar zalida yetakchi universitetlar va kompaniyalar, asosiy ma'ruzachilar, ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida matbuot anjumani o'tkazildi. Jurnalistlar olim va amaliyotchilardan o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob oldilar.

Anjuman doirasida "O'zbekiston Milliy metrologiya instituti" davlat muassasasi Navoiy filialida universitetning "Metrologiya, standartlashtirish va sertifikatlashtirish" kafedrasini filialining tantali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Ushbu tadbirda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi direktori Akmal Jumanazarov, Navoiy viloyati hokimi o'rinbosari - investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig'i Elbek G'afarov hamda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti rektori Baxtiyor Mardonovlar filialning ochilish marosimi bilan talabalar va kafedra professor-o'qituvchilarini qizg'in tabrikladi va yaratilgan sharoitlar bilan yaqindan tanishdi.

Shu kuni Agentlik va Universitet o'rtasida Kadrlarni tayyorlash sohasida hamkorlik to'g'risida Anglashuv memorandumini imzolandi.

Anjuman ishtirokchilari oltita asosiy sho'bada dolzarb muammolar va ularning yechimlarini muhokama qildish. Bu yo'nalishlar Zarafshon mintaqasining kelgusi rivojlanishi uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalarni qamrab oldi.

Kunning ikkinchi yarmida anjuman o'z ishini "Geologiya, geotexnologiya va tog'-kon ishi", "Metallurgiya, foydali qazilmalarni qayta ishlash va kimyoviy texnologiyalar", "Mashinasozlik, asbobsozlik va avtomatlashtirish", "Energetika va energiya samaradorligi", "Sanoat ekologiyasi va barqaror rivojlantirish", "Iqtisodiyot, innovatsion menejment va sanoat merosi" yo'nalishlaridagi sho'balarda davom ettirdi. Mazkur sho'balarda qator ma'ruzalar o'qildi, kon-metallurgiya sanoati istiqbollari muhokama qilindi.

25-sentabr kuni dunyoga mashhur "Muruntov" koniga sayohat, shuningdek, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti kafedralarida sohaga oid dolzarb masalalarni muhokama qilish uchun mavzuli uchrashuvlar tashkil etildi.

Anjuman yakunida Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti hamda Rossiya Federatsiyasining Ural federal va Ural kon-metallurgiya kompaniyasi texnika universitetlari, Malayziyaning UNTEN universiteti olimlari akademik va ilmiy hamkorlik, o'zaro kadrlarni o'qitish, ularning bilim va malakalarini oshirish yuzasidan muzokaralar olib bordilar. Shu bilan VI xalqaro ilmiy-texnik anjuman o'z ishini yakunladi.

Nizomiddin SADRIDDINOV.
Suratlar muallifi Siroj ASLONOV.

■ Xabar

So'nggi sakkiz yilda Navoiy kon-metallurgiya kombinatida muhim ahamiyatga ega investitsion loyihalarning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida korxona mutaxassislari tomonidan 4 ta yangi gidrometallurgiya zavodlari ishga tushirildi. Shunday sanoat korxonalaridan biri, bu – texnogen chiqindilarni qayta ishlaydigan 7-gidrometallurgiya zavodidir.

7-GMZ: QUVVATLAR
KENGAYTIRILMOQDA

Bugungi kunda korxonada "7-gidrometallurgiya zavodining qayta ishlash quvvatini kengaytirish" investitsion loyihasi doirasida texnogen chiqindilarni qayta ishlash va mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'yicha qurilish-montaj ishlari davom etmoqda.

– Dastlab korxonamiz ishga tushgan paytda loyiha bo'yicha yillik qayta ishlash quvvati 15 million tonna etib belgilangan edi. Kombinat mutaxassislarning sa'y-harakatlari bilan joriy yilda ushbu ko'rsatkichni 20 million tonnadan oshirish rejalashtirilgan. Joriy yilda to'rtta yangi tegirmon ishga tushirildi, zavodda tegirmonlar soni o'n ikkitaga yetkazildi. Kelgusida korxona quvvatini 26 million tonnaga yetkazish mo'ljallangan, – deydi

zavod direktori Sardor Polvanov.

Ta'kidlash kerakki, yangi tegirmonlar uchun zarur asbob-uskuna va ehtiyot qismlar mahalliy-lashtirilib, Navoiy mashinasozlik zavodi hamda Zarafshon ta'mirlash-mexanika zavodida tayyor-lanyapti. Qurilish ishlari Zarafshon qurilish bosh-qarmasi tomonidan amalga oshirilmoqda.

Qayta ishlash quvvati va ishlab chiqarish haj-mi kengayib borayotgan mazkur zavodda hozirgi kunga qadar mingga yaqin yangi ish o'rinlari ya-ratilib, asosan yosh kadrlar, shu jumladan, Na-voiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti bitiruvchilari ishga qabul qilindi.

"NKMK" AJ Matbuot xizmati

■ E'tirof

IMKONSIZ ISHNING
O'ZI YO'Q, AGAR...

Bugungi kunda yurtimizda ilmiy tadqiqotlar, olimlarning jamiyatdagi nufuzini oshirish, ayniqsa, yosh olimlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuning barobarida muhandis kadrlarni tayyorlashga strategik vazifa sifatida alohida e'tibor qaratilmoqda. Yaqinda respublika miqyosida o'tkazilgan muhandislik ko'rik-tanlovi bu boradagi jarayonlarning yorqin ko'rinishi sanaladi.



Men Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti dotsenti – yosh olim va ixtirochi sifa-tida ushbu tanlovning "Eng yaxshi ixtiro" yo'na-lishida 1-o'rinni qo'lga kiritib, Prezident sovg'asi – BYD avtomobiliga sazovor bo'ldim. Mazkur no-minatsiyaning birinchi bosqichida ming nafardan ortiq olimlarning arizalari qabul qilingan bo'lsa, ikkinchi bosqichda 100 ta loyiha ko'rib chiqildi va tanlovning final bosqichida hakamlar hay'ati e'ti-boriga 15 ta loyiha bo'yicha taqdimotlar havola etildi. Eng yuksak o'rin menga nasib etganligi na-faqat shaxsiy mehnatim, balki avvalo, ustozlarim-ning bergan bilimi, ko'rsatgan yo'l-yo'rig'i hamda ta'lim, ilm-fan va texnologiyaga qaratilayotgan e'tibor samarasi, deb bilaman. Bunday e'tirofda ota-onamning duolari muhim o'rin tutishini ham alohida qayd etishim kerak.

1993-yilda Navbahor tumanida tug'ilib, oddiy oilada ulg'ayganman. Navoiy davlat konchilik ins-titutida tahsil oldim. Magistraturani ham shu yer-da tamomladim. O'qish bilan bir paytda to'rt yil Navoiy mashinasozlik zavodida texnolog sifatida mehnat qildim. Aynan shu korxonada to'plagan tajribalar meni amaliyot va nazariyani uyg'un-lashtirishga o'rgatdi.

Ustozim, magistrlik dissertatsiyasiga rahbar-lik qilgan olim, "Kimyoviy texnologiya" kafed-rasi professori Bahodir Muhiddinov yaratgan ilmiy maktab vakili ekanligimdan faxrlanaman. 2022-yilda ustozim bilan birga ixtiro uchun patent muallifligiga ham erishganmiz. Poliuretan chiqin-dilarini qayta ishlash bo'yicha xalqaro patent aso-

sida hozirda zavodda ishlab chiqarish uchastkasi tashkil etilib, har oyda o'rtacha 20 tonnaga ya-qin chiqindilar qayta ishlanib, sanoat uchun za-rur mahsulotlar olinmoqda. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlik, balki ekologiya va kelajak avlod uchun toza muhitni saqlash yo'lidagi muhim qa-damlardan biri bo'ldi, deyish mumkin. Mahalliy-lashtirgan mahsulotimiz evaziga kombinat xa-rajatlarini ma'lum darajada qisqartirishga yoki 3 milliard so'mdan ortiq qiymatdagi samaradorlikka erishdik. Hozirgi kunda mazkur loyihamizni ke-ngaytirish, yedirishga bardoshli detallar yaratish, import qilinadigan boshqa polimer mahsulotlarini ham mahalliy-lashtirish ustida faol ishlayapmiz.

O'tgan yili "Innovatsion g'oyalar yetakchi-si-2024" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan edim. Aytmoqchimaniki, mehnat va sabr-toqat – muvaf-faqiyatga erishishda uchun eng to'g'ri yo'l. Bir qarashda oddiy bo'lib tuyuladigan g'oya va kichik tashabbus ortida butun bir sanoatni rivojlantiradi-gan ulkan imkoniyatlar yotadi. "Prezident sovg'a-si" – zimmamga katta mas'uliyat yuklashini ham teran his etayapman. Kelgusida ilm yo'lidagi mu-vaffaqiyatlarim bilan bu ishonchni to'la oqlashga intilaman.

Yosh muhandislarga tilagim va da'vatim shu: imkonsiz ishning o'zi yo'q. Agar kelajakka ishonch bilan qarab, ilm yo'lida tinimsiz mehnat qilib, orzular sari dadil qadam tashlasangiz, al-batta, jamiyatda munosib o'rin egallaysiz.

Asliiddin SHODIYEV,
NDKTU dotsenti.



mobili bilan taqdirlangan universitetning dotsenti Asliiddin Shodiyevga mashina kalitini, mazkur tanlovda "Eng yaxshi loyiha" yo'nalishida ikkin-chi o'rinni egallagan Suxrob Hamidovga davlat tomonidan moliyalashtirilgan xorijiy stajirovka sertifikatini topshirdi. Shuningdek, universitet huzuridagi litsey bitiruvchilaridan eng yuqori ball to'plab, respublikamizning nufuzli oliygo'hariga o'qishga kirgan 19 nafar yosh talaba yigit-qizlar noutbuk bilan taqdirlandilar.

Bugungi kunda Zarafshon mintaqasi O'zbekis-tonning asosiy sanoat va ilmiy drayverlaridan biri bo'lib, zamonaviy texnologiyalarning o'ziga xos uyg'unligi ulkan iqtisodiy va innovatsion rivojla-nish uchun qulay sharoitlarni yaratmoqda. Anju-manda jahonning Germaniya, AQSH, Rossiya, Xitoy, Malayziya, Qozog'iston, Vengriya, Turkiya, va boshqa davlatlaridan, shuningdek, respubli-kamizning yetakchi oliy o'quv yurtlaridan tashrif buyurgan yuz nafardan ortiq olimlar, ilmiy tadqi-qotchilar ishtirok etdilar.

Dastlabki kungi yalpi majlisda Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti Boshqa-ruv Kengashi raisi, texnika fanlari doktori, profes-sor Q.Sanaqulovning so'nggi yillarda Zarafshon mintaqasining innovatsion rivojlanishi va amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar haqidagi ma'ruzasi tinglandi.

Ma'ruzachi ta'kidlaganidek, yangi O'zbekis-tonda keyingi yillarda keng ko'lami islohotlar amalga oshirilmoqda. Zarafshon vohasi qadimda ilm-fan, madaniyat va savdo markazi bo'lgan, hu-narmandchilik va qishloq xo'jaligi rivojlangan. Ho-zirgi kunda voha sanoatlashgan hududlardan biri bo'lib, unda kon-metallurgiya, kimyo, energetika kabi tarmoqlar jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Ilm-fan va innovatsiyalar Zarafshon hududining iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu boisdan universitet jamoasi dolzarb muammolar bo'yicha dunyoning nufuzli oliygo'harlari va olimlari bilan ilmiy hamkorlik ishlarni kuchaytirib, xalqaro loyihalarni amalga oshirishi zarur.

darajadagi barqaror taraqqiyot uchun ham mu-him ahamiyatga ega. Mavjud imkoniyatlardan oqilona foydalanish tufayli ushbu hudud istiqbolli, yuqori texnologik hududga aylanishi mumkin.

Quvondiq Sanaqulovich o'z ma'ruzasida kon-metallurgiya sohasini, demakki, Zarafshon sa-noat mintaqasini innovatsion rivojlantirishga dair murakkab tarkibli oltin rudalarni qayta ishlash va nanoo'lchamdagi oltinni ajratib olish, tog'-kon sanoati tashlamalari va chiqindixonalardagi chi-qindilardan metallarni ajratib olish uchun muqo-bil xomashyo sifatida foydalanish, karyer va yer osti ishlanmalarining geomexanik muammolari, suv resurslaridan oqilona foydalanish, Yashil energetikani kengaytirish va uglerod ta'sirini ka-maytirish, "Oltin uchburchak: universitet – sano-at – IT-sektor" jahon amaliyotini joriy etish, yerlar degradatsiyasi kabi muammolarga qayta qaradti hamda ularni ilm-fan yutuqlariga tayangan holda hal etish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidladi.

Shuningdek, anjumaning yalpi majlisida Rossiyaning Ural federal universiteti prezidenti V.Koksharov, Germaniyaning "Freyberg konchilik akademiyasi" konchilik instituti direktori, profes-sor K.Drebenshtedt, Milliy tadqiqot texnologi-ya universiteti "MISiS" Olmaliq filiali professori B.Raimjonov, Vengriyaning Mishkols universi-teti Ishtvan Shali nomidagi Mexanika muhan-disligi doktorantura maktabi rahbari, professor G.Bognar, K.Satpayev nomidagi Qozog'iston milliy texnika universiteti O.Baykonurov nomi-dagi kon-metallurgiya instituti "Metallurgiya va foydali qazilmalarni boyitish" kafedrasini professori G.Turibekova, Rossiyaning "VNIMI" AJ Geofizik tadqiqotlar laboratoriyasi yetakchi ilmiy xodimi K.Romanovichlar ham O'zbekiston korxona va muassasalari bilan ilmiy-ta'limiy hamkorlik, yaqin kelajakda tog'-kon sanoatini rivojlantirishning is-tiqbolli yo'nalishlari, kamyob yer elementlarining qiymat zanjiridagi roli, oltin ma'danli konlarni yer osti usulida qazib olishning innovatsion texnolo-giyalari, mineral xomashyosini qayta ishlash tex-

■ 1-oktabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni

FIDOKORONA MEHNAT SAMARASI

Shimoliy kon boshqarmasi Ta'mirlash-qurilish uchastkasi jamoasi orasida o'z kasbini ardoqlab, kasbidan e'zoz topayotgan va e'tirofga sazovor bo'layotganlar bisyor. Bugun so'z yuritmoqchi bo'layotgan qahramonimiz ham ko'pchilikka ibrat bo'lgan insonlardan.



Xalqimiz bo'ladigan bola boshidan ma'lum, deydi. Bahriddin Davidov Xatirchi tumanida oddiy oilada tug'ilib voyaga yetdi. Otasi jamoa xo'jaligida brigadir, onasi esa ishchi edi. Shu muhitda o'sgani bois, unda mehnatga muhabbat erta shakllandi. Suhbatdoshimiz o'quvchilik yillaridanoq quruvchilik, duradgorlik sohasiga qiziqishini, mehnat darsi boshlandi deguncha, birinchilardan bo'lib darsga yugurib ketishini zavq bilan gapirib berdi. Maktabni tamomlagach, harbiy xizmatni qurilish bo'linmasida o'tadi. Xizmatni tugatgach, ikki yil qishloqda brigadirlik qildi.

B.Davidov 2004-yildan buyon Uchquduq shahrida istiqomat qiladi. Dastlab Shimoliy kon boshqarmasining Ta'mirlash-qurilish uchastkasiga oddiy ishchi bo'lib ishga kirdi. Bu yerda tajribali ustozlari Oltinbek Utigenov va Nekqadam Qulboyevlardan kasb sirlarini o'rgandi. Bunyodkorlik sohasidagi qariyb yigirma ikki yillik mehnat faoliyati davomida o'zi ham ustoz darajasiga yetib, shogirdlarga ustozlik qildi. Eng muhimi, ko'plab loyihalarda ishtirok etib, yurtimizning obod va farovon bo'lishida o'zining munosib hissasini qo'shib ulgurdi. Xususan, "Marjonbuloq" koni hamda 3-gidrometallurgiya zavodining ta'mirlash-qurilish ishlarida faol ishtirok etdi. Navbahor tumanidagi "Sarmish" va Zarafshon shahrida oromgohlar, shuningdek, "Hojibo'g'ot", "Dovg'istov" konlari yotoqxonalarining o'z vaqtida, sifatlí foydalanishga topshirilishida uning arzigulik xizmati bo'ldi. Chin dildan bajarilgan ishlar omadli yakun topadi, deyishadi. Ustoz yoshlarga nafaqat kasb sirlarini o'rgatadi, balki chinakam inson bo'lishida ham komil tarbiyachidir.

- Daraxt bir joyda ko'karadi, deb bejiz aytishmagan, Men oradan shuncha yil o'tsa-da, kasbimni o'zgartirmadim. Boisi, bu jamoa mening oilam! Kasbidan hurmat-e'tibor orttirdim. Bu-

gun uchastka jamoasi nimaga erishgan bo'lsa, ustoz-shogirdlik an'analaringning samarasi, deb bilaman. To'g'ri, qurilish oson ish emas, unda qancha mas'uliyat, ko'zga-ko'rinmas muammolar bor. Hamma ham bu sohani tanlayvermaydi. Ilk mehnat faoliyatimni boshlagan paytlarimda meni ko'proq ustozlarimdan o'rganganlarim, amaliyot va tajribalar quruvchiga aylantirdi, desam adashmagan bo'laman. Suvoqchilikka qiziqishim yuqori bo'lgani uchun ishtiyoq bilan o'z ishimning sir-asrorlarini o'rgandim. Ish jarayonida zarurat tug'ilganda birdaniga betonchilik, g'isht terish, bo'yoqchilik kabi kasblarni ham uddalab ketaveramiz. Yillar davomida bu kasblarni ipidan-ignasigacha o'zlashtirganmiz. Jamoamiz o'rtasida birdamlik mustahkam. Har bir xodim o'z vazifasini anglab, ishiga mas'uliyat bilan yondashadi. Men uchun muvaffaqiyat siri, bu – jamoamiz bilan hamjihatlikda ishlashda. Uchastkamizda barcha sharoitlar yaratilgan. Biz ish jarayonida xavfsizlik va sifetni birinchi o'ringa qo'yamiz, chunki bu holat nafaqat ishchilarning salomatligi, balki ish faoliyati uchun ham muhimdir. Yosh mutaxassislarni tarbiyalash va ularga ustozlar birlitirish tizimi yo'lg'a qo'yilgan. Quruvchilik kasbining ortida katta mehnat, tajriba va bilim yotadi. Bunday bilimlarni yosh mutaxassislarga o'rgatish esa ustozlik faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Jamoada ishlayotgan ko'plab yoshlarga ustozlik qilganman. Har bir shogirdimga ish jarayonida shoshmaslik, sabr va mas'uliyat bilan yondashish kerakligini o'rgatganman.

Bugun boshqa hududlar kabi Uchquduqda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Mahallalar obod bo'lib, zamonaviy inshootlar qad rostlayapti. Ana shu qizg'in jarayonda men ham ishtirok etayotganimdan, unga ozmi-ko'pmi hissa qo'shayotganimdan faxrlanaman. Biz tufayli minglab insonlar munosib sharoitlarda yashayotgani va ishlayotgani qalbidam faxr tuyg'usini yanada orttiradi, – deydi Bahriddin aka biz bilan suhbatda.

Qahramonimiz futbol va voleybolning ashaddiy ishqibozi. Bu sport turlari bo'yicha o'tkaziladigan musobaqalarda faol ishtirok etadi. Kombinat tizimida o'tkazib kelinayotgan futbol o'yinlariga o'n yil davomida hakamlik qilgan. Hamkasblari uning hakamlik mahoratiga tan berib, Afsonaviy futbol hakamlariga o'xshatishar ekan.

Hayotda erishgan muvaffaqiyatlarini, oilasidagi totuvlik bilan bog'laydi. Uning ta'бири bilan aytganda, "Inson kasbda qanchalik chiniqqan bo'lmasin, baxt va suyanchni oildan topadi". Hayot yo'lidagi barcha sinov va muvaffaqiyatlarni u turmush o'rtog'i – mehribon, sabrli va oqila Shoira O'roqova bilan yelkadosh bo'lib birgalikda yengib o'tgan. Rafiqasi Shoira opa Bahriddin akaning hayot yo'lidagi eng yaqin maslakdoshi va suyanchi bo'lib kelayapti. Ular birgalikda ikki nafar o'g'il va bir qizni tarbiyalashdi, o'qitib, el qatoriga qo'shdilar.

Dildora KARIMOVA.

Inson hayotda mehnati, xayrli va ezgu ishlari bilan qadr topadi. 2-gidrometallurgiya zavodi nasos qurilmalari mashinisti Shaxriyor Suyunov kasbiga sadoqati, fidoiyligi tufayli jamoasi orasida hurmat-e'tibor topib, ko'plab shogirdlar yetishtirdi.



Samarqandning so'lim go'shasi, purviqor tog'lar bag'rida joylashgan Urgut tumanida tug'ilib o'sgan Shaxriyor aka harbiy xizmatni o'tab qaytgach, mehnat faoliyatini 2-gidrometallurgiya zavodida boshlagan. Mana o'ttiz uch yildirki shu korxonada ishlab, o'nlab yoshlarga ustoz

qilib kelayapti.

Quyultirish sexida oltin ajratib olish bilan bog'liq muhim texnologik jarayon bajariladi. Sexning reagentlar bo'linmasi jamoasining asosiy vazifasi – zavod texnologik jarayonlari uchun zarur reagentlarni qabul qilish, saqlash, tayyorlash va uzatishdan iborat. Sh.Suyunov mazkur sexda faoliyat olib boradi. Yuqori quvvatli nasos qurilmalariga xizmat ko'rsatish mashaqqatli va mas'uliyatli bo'lsada, bu ish unga qiyinchilik tug'dirmaydi.

– Hayot – bu harakat. Albatta, kunlik yoki oylik rejalarning bajarilishi butun zavod jamoasining yutug'i, deb hisoblayman. Inson kasbidan mamnun bo'lsa, o'z ishini sidqidildan bajaradi. Men sexda yuqori quvvatli nasos qurilmalariga xizmat ko'rsata-

man. Shu bilan birga, maydalanmagan shag'al toshlarni ajratib beruvchi barabanli g'alvirlarning uzluksiz ishlashini nazorat qilaman. Nasoslar, suv bosim qurilmalari, nazorat asboblari, avtomatlash va himoya qurilmalarini rostdash va kuzatish insondan o'ta hushyorlik va mas'uliman.

man. Shu bilan birga, maydalanmagan shag'al toshlarni ajratib beruvchi barabanli g'alvirlarning uzluksiz ishlashini nazorat qilaman. Nasoslar, suv bosim qurilmalari, nazorat asboblari, avtomatlash va himoya qurilmalarini rostdash va kuzatish insondan o'ta hushyorlik va mas'uliman.

Mehnat kishining har bir kuni, bu – maktab. Bu hayotda, kimdandir, nimanidir o'rganasiz. Qahramonimizdan kasb sirlarini o'rgangan yosh mutaxassislar ustozlari bilan yelkama-yelka faoliyat olib borishmoqda.

– Har birimiz qaysi sohada mehnat qilmaylik, ustozlik qilgan insonlarning yordami tufayli kasbimizda kamol topamiz. Zavodimiz jamoasi zimmasidagi vazifalarni to'la va o'z vaqtida bajarayotganligi Shaxriyor Suyunov kabi ishchilar xizmatining samarasidir. Markaziy kon boshqarmasi tizimida ustoz-shogird an'ana-

larining davom etib kelayotganligi ishlab chiqarishni yanada rivojlan-tirishning muhim omili bo'lib xizmat qilmoqda. Shaxriyor aka o'ziga va shogirdlariga nisbatan o'ta talabchan. Biz yoshlarga kasbiy mahoratni oshirib borish kerakligini muntazam ta'kidlab keladi, – deydi sex

mexanigi Nurmurod Zoirov

Oila – inson baxt-saodatini ta'minlovchi qo'rg'ondir. Shaxriyor aka va Muqaddas opa Qilichevaning baxt qo'rg'onida Shoxruz, Diyorbek, Ilyor-bek va Sardorbek ismli farzandlar kamolga yetdi. To'ng'ich o'g'illari Shoxruz Markaziy kon boshqarmasi tizimida faoliyat yuritisa, Diyorbek va Ilyorbek jahonda tan olingan Xanyang universiteti (Koreya) talabalari hisoblanishadi. Olaning kenjasi Sardorbek ular izidan o'qishga tayyorgarlik ko'rmoqda. Tajribali ustoz, yetuk mutaxassis hisoblangan Sh.Suyunov oilasiga ham, farzandlarining ta'lim-tarbiyasiga ham mas'uliyat bilan qarashga odatlangani bois, bu oilada yutuqlar bardavom.

Nafosat ZIYOYEVA.

USTOZ OTANGDEK ULUG'!

Ustoz va murabbiylar jamiyatni olg'a boshlovchi va uning ertangi kunini ta'minlovchi yo'ldi yulduzlardir. Ustozsiz hech bir jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizda "Ustoz otangdek ulug'", "Ustoz ko'rmagan shogird, har maqomga yo'rg'alar", degan iboralar bejizga aytilmagan.

Ustoz deganda biz nafaqat ilm, balki kasb-hunar sohaslarida ham shogirdlariga tajribasini o'rgatuvchi insonni tasavvur qilamiz. Ulardan biri – Navoiy mashinasozlik zavodi innovatsion texnologiyalar bo'limi boshlig'i Ulug'bek Raxmonovdir.

U 1999-yilda Navoiy sanoat texnikumini a'lo baholarga tugatib, ish faoliyatini gidrometallurgiya zavodida chilangar-ta'mirovchilikdan ish boshladi. Qariyb chorak asrdirki, Navoiy mashinasozlik zavodida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Shu davrda u quy-machilik sexi nasos qurilmalari mashinisti, usta, muhandis, bosh metallurg o'rinbosari, bosh metallurg, metallurg xizmatlari yetakchi muhandisi lavozimlarida xizmat qildi. 2020-yildan e'tiboran Innovatsion texnologiyalar bo'limini boshqarmoqda. Ishdan ajralmagan holda, Navoiy davlat konchilik institutini kimyoviy texnologiya va biotexnologiya, Ural davlat texnika universitetini qora va rangli metallar ishlab chiqarish yo'nalishi bo'yicha tugatib, nazariy bilimni ham oshirdi.

Innovatsion texnologiyalar bo'limida ayni paytda uch nafar yosh mutaxassis muhandis mehnat qiladi. Korxonada yaratilgan sharoitlar har bir xodimni ixtirolar yaratishga ruhlan-tiradi. Buning uchun esa yetarli ilm, zamonaviy texnologiyalardan xabardor bo'lish, albatta tajribali ustozning amaliy ko'magi va qo'llab-quvvatlashi zarur bo'ladi. Ulug'bek aka aynan shunday maqomga erishgan insondir. Uning hamkasblari bilan hammualliflikda turli yillarda yaratgan "Yuqori

tozalikdagi ferroborni olish usuli", "Ferrovanadiyni olish usuli", "Konusli maydalagichning ishchi organi", "Barabanli tegirmon yon qopqog'i futerovkasi", "Eyilishga chidamli po'lat" kabi ixtirolariga patentlar olingan va ular zavodda, shuningdek, NKMK bo'linmalarida tadbiq qilinib, iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Ulug'bek Raxmonov mehnat faoliyati davomida N.Eshmuradov, B.G'afforov, R.Ochilov, S.Niftullayevlar singari yoshlarga ustozlik qildi.

– Iqtidorli shogirdlarim bilan birgalikda "Konusli maydalagichning ishchi organi", "Barabanli tegirmon yon qopqog'i futerovkasi", "Eyilishga chidamli po'lat", "Eyilishga bardoshli cho'yan" va yana bir necha yangi ishlar ustida ish olib bor-yapmiz, – deydi U.Raxmonov.

– Ustoz —hayotdagi ilhom manbaimdir. U kishining sabrlliligi, otalarcha mehribonligi va bilimlga ishtiyoqi biz shogirdlarga kuch bag'ishlab, o'zimizga bo'lgan ishonchimizni oshirayapti. Ustozdan olgan bilimlarim bois, Moskva po'lat va qotishmalar institutining magistraturasiga "Quy-ma texnologiyalar injiniringi" yo'nalishi bo'yicha budget asosida o'qishga kirdim, – deydi shogirdi N.Eshmuradov.

Ulug'bek aka nafaqat ustoz, balki o'zi ham hali-hanuz ilm yo'lidagi izlanishda. 2025 yilda texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasi uchun dissertatsiyani muvaffaqiyatli himoya qildi.

– Amaliy va ilmiy faoliyatda yaxshi natijalar-



ga erishishimda ustozlarimning hissalarini katta. A.Gubaydullin, I.Kazansev, N.Fenkelshteyn, V.Lilbok, Yu.Ganiyev, N.To'raxo'jayevlarni ustozlarim, deya olaman. Ular bilan hammualliflikda ko'plab ixtirolarni amalga oshirganmiz. Tarbiyalagan shogirdlarim va ular erishayotgan yutuqlarni esa hayotim mazmuni deb hisoblayman, – deydi U.Raxmonov.

Kamtarin bu insonning mehnatlari munosib baholanib, zavod va kombinat rahbariyati tomonidan bir necha marotaba Faxriy yoriqlar bilan taqdirlangan. U.Raxmonovning fikrlariga qo'shimlay bo'lmaydi. Zero, ustozlik maqomi-oliy saodat! Kamolot yo'lidagi bizga saboq, hayotda o'z o'rnimizni topishimizga, o'z kasbining ustasi bo'lib yetishimizga ko'mak bergan muhtaram ustozu muallimlarimiz oldida bir umr qarzdormiz.

A.AXMEDOVA

МОЯ НАГРАДА – МОИ УЧЕНИКИ: история Хомид Джумаева, наставника водителей в пустыне Кызылкум

Человек, который строит будущее в пустыне

В центре пустыни Кызылкум, где солнце беспощадно жжёт землю, а ветры несут песок, работает человек, чья жизнь — пример преданности, труда и любви к профессии. Хомид Джумаев, водитель-наставник-инструктор Управления автотранспорта рудника «Восточный» Северного рудоуправления Навоийского горно-металлургического комбината, — это не просто специалист за рулём большегрузного самосвала. Это наставник, который за 40 лет работы воспитал сотни молодых водителей, передавая им не только навыки вождения, но и уважение к технике безопасности, коллективу и своей жизни. В этой статье мы расскажем о его пути, достижениях и философии жизни, где главная награда — успехи учеников. Это история о том, как один человек меняет мир вокруг себя, даже в самых суровых условиях.

Детство и начало пути: от слесаря к водителю в пустыне

Х.Джумаев родился и вырос в Гиждуване в семье рабочих. Его родители трудились на благо семьи, и с ранних лет Хомид впитывал ценности труда и ответственности. После школы он поступил в профессионально-техническое училище, где выучился на слесаря-сантехника — профессию, которая давала стабильность и возможность зарабатывать.

Но жизнь не стояла на месте. После службы в армии в 1986 году Хомид получил приглашение от Северного рудо-

управления НГМК переехать в Учкудук. Это был смелый шаг: город в сердце пустыни Кызылкум, с экстремальными климатическими условиями — жара до 50 градусов, пыльные бури и суровые зимы. Однако привлекали стабильная зарплата и шанс освоить вторую профессию. "Я начинал работать слесарем, а затем выучился на водителя", — вспоминает Хомид. Его старший брат уже работал водителем БелАЗа на руднике с 1976 года, и это стало дополнительным стимулом. Вместе с двумя братьями Хомид приехал в Учкудук, где началась его новая жизнь.

Первые шаги в профессии были скромными. Работая на автобазе №1, он начинал с небольшой грузовой машины ГАЗ-51, возя энергетиков на карьер. Затем перешёл на легковые автомобили. В 1993 году его перевели в Управление автотранспорта Северного рудоуправления, где он прошёл обучение на большегрузные машины БелАЗ. Сначала работал на урановом руднике, а через год — на золотодобывающем руднике «Восточный». Эти годы закаляли его характер, научили преодолевать трудности и ценить коллектив. "Здесь чувствуется плечо друга, присутствует дух коллективизма", — говорит Хомид Олимович. Учкудук из пыльного посёлка превратился в современный город с инфраструктурой, и Хомид Олимович ни разу не пожалел о своём выборе.

Карьера наставника: обучение в условиях карьеры и за симулятором

Ключевой поворот в карьере Хомид Олимовича произошёл, когда он стал



водителем-наставником. Благодаря большому опыту и умению передавать знания, он начал обучать молодых водителей прямо на линии. Его уроки были не просто теорией — это была практика в реальных условиях карьеры. Он учил ездить по карьеру в любое время суток, в любой сезон, соблюдая технику безопасности и дорожные правила. "Как правильно заполнять путевые листы, как правильно производить заправку топливом, как правильно подъехать под экскаватор, как правильно подъехать в зону выгрузки, на отвалы", — перечисляет Хомид Олимович ключевые навыки.

27 лет он работал водителем-наставником на линии. В 2020 году Управле-

ние автотранспорта приобрело симулятор большегрузного самосвала фирмы «KOMATSU», и Хомид перешёл в кабинет инструктора. Теперь он обучает молодых водителей на симуляторе, чтобы они могли уверенно выходить на линию. "Я один работаю инструктором в УАТ, скачаю по работе в карьер, но ведь и обучать молодёжь, готовить смену кому-то надо", — признаётся он. За годы работы Х.Джумаев обучил сотни учеников, включая водителей из других рудников и карьеров комбината.

Но обучение не заканчивается после курсов. Каждый водитель карьеры «Восточный» проходит у него обязательную переподготовку каждые три месяца. Это включает экзамены по технике безопасности, безопасности движения и другим аспектам. Компьютер выдает результаты, обеспечивая объективность. Такой подход гарантирует, что знания не забываются, и водители всегда готовы к вызовам. Хомид Олимович гордится тем, что его ученики работают по всему комбинату, и многие из них добиваются успехов.

Семья и личная жизнь: опора в суровых условиях

Несмотря на тяжёлую работу, Хомид Олимович сумел построить крепкую семью. В Учкудуке он встретил свою супругу Надир, которая работает медсестрой в медсанчасти города. Вместе они воспитали двоих детей: сын работает пилотом гражданской авиации, дочь учится в институте. Оба имеют водительские права — семейная традиция, унаследованная

от отца. Хомид Олимович ценит комфорт Учкудука: современные удобства, благоустройство, несмотря на пустыню. Город предлагает перспективы для работы и карьерного роста, и Хомид Олимович видит в нём будущее.

В свободное время занимается озеленением территории Управления автотранспорта: сажает декоративные и плодовые деревья, выращенные им самим, ухаживает за ними. Это не просто хобби, а вклад в улучшение окружающей среды в пустыне Кызылкум.

Награды и философия: главная награда — ученики

За годы работы Х.Джумаев неоднократно награждался почётными грамотами от НГМК. Но самая большая награда для него — не дипломы, а успехи учеников. «Моя награда — мои ученики, их успехи и победы, которым я радуюсь вместе с ними, то, что они не забывают меня», — говорит он. - Хочу, чтобы все они были здоровы, счастливы, любили свою работу и уважали коллектив».

Философия Хомид Олимовича проста: труд, обучение и забота о людях. В мире, где технологии меняют профессию, он остаётся верен традициям наставничества. Его история — напоминание о том, как один человек может вдохновить многих. В условиях карьеры, где риски высоки, его подход спасает жизни и повышает эффективность работы.

Влияние на отрасль: уроки от наставника

Хомид Джумаев — часть большой си-

стемы НГМК, которая добывает золото, серебро и другие природные ресурсы в Узбекистане. Его вклад в обучение водителей большегрузных машин важен для безопасности и производственности. В горнодобыче, где БелАЗы перевозят тонны руды, ошибки могут стоить дорого. Благодаря наставникам вроде Х.Джумаева, комбинат поддерживает высокий уровень подготовки кадров.

Его опыт показывает, как переобучение и симуляторы (введённые в 2020 году) меняют подход к обучению. Раньше всё было на практике, теперь — комбинация симулятора и реальных условий. Это снижает риски и ускоряет подготовку.

В будущем, с развитием технологий, работа таких наставников станет ещё важнее. Автономные машины и ИИ могут изменить работу водителей, но человеческий фактор — обучение и мотивация — останётся ключевым.

Наследие в пустыне и за её пределами

История Хомид Джумаева — это история обычного человека, ставшего героем в глазах своих учеников. Его жизнь учит нас ценить труд, семью и вклад в общество. В эпоху, когда технологии доминируют, его подход напоминает о важности человеческого наставничества.

Если бы каждый наставник подходил к работе с такой страстью, мир стал бы лучше. А мы можем взять пример с него: вкладывать душу в то, что делаем, и радоваться успехам тех, кого учим.

Насиба ШАМУРАТОВА.

■ Matbuot anjumani

“Farhod” madaniyat saroyida joylashgan matbuot anjumanlarini oʻtkazish zalida ommaviy axborot vositalari va jurnalistlar uchun “NKMKda geologiya-qidiruv ishlari va istiqboldagi rejalar” mavzusida matbuot anjumani boʻlib oʻtdi. Unda, Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi jamoasi amalga oshirayotgan ishlar haqida hisobot tinglandi.

ning ichidan tepaga koʻtariladi. Yuqori bosimdagi havo burgʻilash kolonnasiga kompressor yordamida yuboriladi. Za-boyda togʻ jinsi zarbli-aylanma uslubda pnevmabolgʻa yordamida maydalanadi. Havo bilan chiqqan togʻ jinslari quvur orqali siklon-bunkerga va namunani qabul qilib olish mexanizmiga tushadi.

GEOLOGIYA SOHASI YANGI BOSQICHDA



Navoiy kon-metallurgiya kombinatida geologiya sohasi muhim ahamiyatga ega. Dunyo tajribasiga tayangan holda kombinat tarixida ilk bor konsalting kompaniyasi mutaxassislari tavsiyasi bilan foydali qazilmalar zaxiralarini JORC kodeksi talablari asosida baholash tizimi yoʻlga qoʻyildi.

Oʻzbekiston – koʻplab foydali qazilmalarga boy mamlakat. Ular orasida qimmatbaho metallar alohida oʻrin egallaydi. Hozirgi kunda respublikamizda 60 dan ortiq oltin maʼdanli konlar oʻrganilgan boʻlib, ularning 40 ga yaqini Qizilqum kengliklarida joylashgan. Ushbu oltin maʼdanli konlar Navoiy kon-metallurgiya kombinatining asosiy xomashyo zaxirasi hisoblanadi.

Geologiya-qidiruv ekspeditsiyaning asosiy vazifasi – belgilab berilgan rejalarni bajarish, foydali qazilma konlarining kon-geologik sharoitlari va ularning texnologik xususiyatlarini baholash orqali, mavjud resurs bazasini kengaytirish hamda qoʻshimcha oʻrganish, yangi ochilgan zaxiralarda alohida ishlab chiqarish hududlari va konlarni iqtisodiy qayta baholashdan iborat.

Barcha sohalarda boʻlgani kabi bizning sohada ham ishlab chiqarish jarayonlarini raqamlashtirishga alohida eʼtibor qaratilgan. Yangi texnologiyalar, dasturiy taʼminotlarni qoʻllash orqali sohamizni bosqichma-bosqich raqamlashtirishga erishilmoqda.

Xususan, konlarni modelashtirish jarayonida integratsiyalangan “Micromine” moduli dasturi, geologik maʼlumotlarni yigʻish, saqlash va boshqarishni taʼminlaydigan, butun kombinatda yagona geoaxborot maʼlumotlar muhitini yaratishga imkon beradigan “Seobank” va “Seobank Mobile” kabi dasturlar joriy etilgani fikrimiz isbotidir.

Bu bosqichda namunalash, geologik hujjatlashtirish, namunalarga ishlov berish, laboratoriyaga joʻnatish, laboratoriy

ya tahlillariga bogʻliq barcha maʼlumotlar axborot bazasiga kiritildi.

2018-2025-yillarda ekspeditsiyamiz tomonidan olib borilgan geologiya-qidiruv ishlari natijasida “Qoraqoʻton”, “Yangi Dovon”, “Kolchiklov”, “Rohat”, “Gʻarbiy Rohat”, “Beshashi”, “Charmitan”, “Qoqpatas” va boshqa konlarda oltin zaxiralarini oʻstirishga erishildi va belgilangan hujjatlar asosida qazib oluvchi korxonalarga topshirildi.

Ayni paytda ekspeditsiyamizda 23 ta turli rumumdagi burgʻilash uskunalari mavjud boʻlib, turli joylarda geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda. “Boyles C6”, “C8C”, “HYDX-5a”, “8HYKD-8”, “CID-7A” va “CID-8A” rumumli zamonaviy burgʻilash uskunalari yordamida yuqori ish unumdorligiga erishilmoqda.

Namunalarni saqlash va ishlov berish uchun Markaziy, 2, 3 va 4-sonli geologiya-qidiruv partiyalari yangidan qurilgan va zamonaviy jihozlangan oʻz binolariga ega boʻldi. Joriy yilda bir kunda 400 dona geologik namunalarini tahlil qilish laboratoriyasi qurib foydalanishga topshirilishi koʻzda tutilgan boʻlib, mazkur obyektida qurilish ishlari yakunlanish arafasida.

Kombinat rahbariyatining qoʻllab-quvvatlashi va belgilab bergan rejasi asosida geologiya-qidiruv ishlari hajmi oʻsib borayapti. 2023-yilda 54,4 ming pagonometr burgʻilash ishlari olib borilgan boʻlsa, 2024-yilda bu koʻrsatkich 64,4 ming pagonometrga yetkazildi. Bu yilgi reja yanada ulkan. Joriy yilda 84,4 ming pagonometr burgʻilash ishlari amalga oshirishni moʻljallaganmiz.

Ekspeditsiyamiz jamoasi tomonidan 2025-yilda birinchi marta 17 ming pagonometr RC burgʻilash-ekspluatatsion qidirish ishlari amalga oshirishga kirishganmiz. RC burgʻilash, bu – havoni teskari puflash, yaʼni, havo pastga quvurlar orasidan berilib, maydalangan togʻ jinslari bilan birga ichki burgʻilash quvuri-

Shu bilan birga ekspeditsiyamiz tomonidan 15 ta loyiha asosida qoʻshimcha geologiya-qidiruv ishlari olib borilmoqda.

Bizning muhim vazifalarimizdan yana biri – 2025-yilda oltinning S2 toifadagi zaxiralarini S1 toifasiga oʻtkazish orqali zaxiralarni qazib olishga tayyorlash va ekspluatatsion qidirish loyihalarini amalga oshirishdir. S2 + S1 toifalaridagi oltin zaxiralarini oʻstirish prognoz koʻrsatkichlari 10,5 tonna etib belgilangan.

Qolaversa, joriy yilda geologiya-qidiruv ishlari dasturini amalga oshirish uchun yangi burgʻilash qurilmalari, energetik, geofizik, laboratoriya uskunalarini, shuningdek, raqamlashtirish uchun ochiq va yerosti togʻ ishlari loyihalashtirish, uch oʻlchovli modelashtirish, zaxiralarni baholash imkonini beruvchi zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari namunasi boʻlgan dasturiy mahsulotlarini xarid qilish nazarda tutilgan.

Kombinatimiz geologiya sohasi fidoiylarining mehnati davlatimiz rahbari tomonidan munosib ragʻbatlantirilib kelinayotgani biz, geologlarni yangi marra-lar sari ruhlantirmoqda. 2016-2025-yillarda bir guruh hamkasblarimiz, jumladan, kombinat bosh geologi Sergey Rudnev “Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan geolog” faxriy unvoni, Rashid Xoʻjanazarov, Hamdam Ibragimov, Shuhrat Saʼdinov, Ilhomjon Hamroyev va Andrey Kuleshovlar “Doʻstlik” ordeni, Nasrullo Boʻriyev va Asqar Nazarovlar “Shuhrat” medali bilan taqdirlangani kombinat geolog-markshayderlari, burgʻilash mashinistlarining fido-korona mehnati hamda xizmatlarining yuksak eʼtirofidir.

Toʻliq BOBONOV,
“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” AJ Geologiya-qidiruv ekspeditsiyasi boshligʻi.

■ Dolzarb mavzu

“YASHIL” ENERGETIKA –
IQTISODIY BARQARORLIK KAFOLATI

Bugungi kunda yurtimizda ishlab chiqarish va iqtisodiyot tarmoqlarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini tatbiq etish, ulardan keng foydalanish, shuningdek energiya taqchilligining oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada “Oʻzbekiston-2030” strategiyasida: “Yashil iqtisodiyot”ga oʻtish, uning asosi boʻlgan qayta tiklanuvchi energiyadan foydalanish koʻrsatkichlarini oshirish koʻzda tutilgan. Bugungi kunda quyosh fotoelektrostansiyalari, shamol turbinalari va geliokollektorlardan foydalanish yuqori samara bermoqda.

Markaziy kon boshqarmasida ham qayta tiklanuvchi energiya manbalari keng joriy etilmoqda. Kon boshqarmasi boʻlinmalarida elektr energiyasining tejash maqsadida quyosh fotoelektrostansiyalari, geliokollektorlardan foydalanilgan holda, sexlar va binolarga elektr-tejamkor LED chiroqlari oʻrnatilgan. Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun esa ishlab chiqarish jarayonida suvni qayta ishlash va aylanma tarzda foydalanish tizimi yoʻlga qoʻyilgan. Investitsion loyihalar asosida Tarmoqlar va podstansiyalar sexida 2021-yilda umumiy quvvati 200 kVt boʻlgan quyosh fotoelektrostansiyalari oʻrnatilib, 2024-yilning yakuniga koʻra 278721 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilgan.

– Kon boshqarmasining barcha ishlab chiqarish obyektlari, binolariga zamonaviy quyosh fotoelektrostansiyalari hamda quyosh energiyasida ishlovchi

suv isitkichlar, yaʼni, geliokollektorlar oʻrnatilayotganligi bois iqtisodiy samaradorlikka erishilmoqda. Boshqarma boʻlinmalarida quyosh geliokollektorlardan foydalanib kelinmoqda. 2025-yilgacha 1236 ta quyosh geliokollektorlari oʻrnatilib ishga tushirilgan boʻlsa, joriy yilda yana 130 ta quyosh geliokollektorlarini oʻrnatish rejalashtirilgan. Shuningdek, istiqbolli loyihalar asosida oʻtgan yili ishlab chiqarish obyektlari uchun elektr energiyani muqobil energiya manbalaridan olish maqsadida quvvati 1450 kVtlik quyosh fotoelektr stansiyalari oʻrnatildi. Mazkur stansiyalarda 2024-yilda 1 million 507 ming 801 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyalarining iqtisodiy samaradorligini tahlil etadigan boʻlsak, joriy yilning sakkiz oyida 1 million 411 ming 393 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, – deydi kon boshqarmasi muhandisi

energetigi Jasur Almatov.

Ishchi-xodimlarga quyosh panellari va suv isitish qurilmalaridan foydalanishning afzalliklari, bu panellar orqali elektr energiya ishlab chiqarilganda atrof-muhitga hech qanday zararli gazlar chiqmasligi hamda bunday qurilmalar binolarning tom qismi va boʻsh yer maydonlarga oʻrnatilishi tufayli ishlash jarayonida hech qanday shovqin boʻlmisligi, ularni oʻrnatish osonligi va uzoq yillar texnik xizmat koʻrsatish talab etilmasligi, shuningdek, xonadon egasi ehtiyojidan ortgan qismini elektr tarmoqlari korxonasiga sotib, daromad olishi mumkinligi, bunda jismoniy shaxslar tomonidan soliq toʻlovlari amalga oshirilmasligi toʻgʻrisida targʻibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Bugungi kungacha kon boshqarmasida faoliyat olib borayotgan 100 nafarga yaqin ishchi-xodimlar oʻz xonadonlariga quyosh fotoelektrostansiyalari oʻrnatishdi. Yana 50 nafarga yaqin xodim xonadonlariga FES oʻrnatish istagi bilan murojaat qilishgan.

“Yashil” energetika bu nafaqat zamonaviy texnologiya, balki kelajak uchun masʼuliyat, inson va tabiat uygʻunligini taʼminlaydigan yoʻldir. Markaziy kon boshqarmasi tomonidan amalga oshirilayotgan tashabbuslar sohadagi saʼy-harakatlarning amaldagi namunasidir. Bu sohadagi har bir qadam barqaror taraqqiyotga, sogʻlom muhit va iqtisodiy yuksalishga xizmat qiladi.

Aziza IRISOVA.

■ Xabar

REJALAR BAJARILMOQDA

“Arsiontov” konidan joriy yilning sakkiz oyida qariyb 4 million kubometr togʻ jinslarni qazib olindi, 397,6 ming pagonometr burgʻilash ishlari bajarildi. 1-gidrometallurgiya zavodiga qariyb 1,2 million tonna maʼdan tashilib, reja 101,3 foizga uddalandi.

Konda ishlab chiqarish rejalarning oʻz vaqtida bajarilishini taʼminlash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida, zamonaviy texnikalar ishlab chiqarishga tatbiq etilmoqda.

– Yuk koʻtarish quvvati 55 tonna boʻlgan avtoagʻdargichlar yordamida bir sutkada oʻrtacha 18-20 ming kubometr togʻ jinslari tashiladi. 8 ta “MAN” rumumli avtoagʻdargichlarda maʼdanni temir yoʻl transportiga yuklash punktiga sutkasi 5 ming tonnadan ortiq oltin tarkibli maʼdan tashilmoqda, – deydi kon bosh muhandisi Maqsud Bozorov.



Yaqinda konga zamonaviy 3 ta burgʻilash uskunasi, avtoagʻdargichi va frontal avtoyuklagich olib kelinadi. Bu, burgʻilash, togʻ jinsini qazib olish,

maʼdan tashish va yuklash ishlari hajmini oshirish imkonini bermoqda.

Azamat ZARIPOV.

■ “Navoiyuran” davlat korxonasida

FAVQULODDA VAZIYATLARGA TAYYORGARLIK

jarayonida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratning roli

Mamlakatimizda, shu jumladan “Navoiyuran” davlat korxonasida fuqaro muhofazasi hamda aholi va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasida qonun ustuvorligini taʼminlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, favqulodda vaziyatlar sodir boʻlgan hollarda oqibatlarini bartaraf etish jarayonlarida korrupsiyaning oldini olish maqsadida, oshkoralik, hisobdorlik hamda zaxiralardan samarali foydalanish ustidan nazoratni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korxonada fuqaro muhofazasi va favqulodda vaziyatlarning oldini olish tizimida asosiy korrupsiyaviy omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- fuqaro muhofazasi tuzilmalari hamda favqulodda vaziyatlarni oldini olish tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida, moddiy-tovar boyliklar xaridini yillik talabnomalar asosida tashkil etish va amalga oshirish;
- yongʻin xavfsizligini taʼminlash, gidrometeorologiya markazlari va yongʻinga qarshi kurash jamiyatlari orqali shartnomalar asosida ishlar va xizmatlarni xarid qilish;
- favqulodda vaziyatlar ehtimoliy hududlarida jabrlanganlarga qidiruv-qutqaruv, tibbiy, ijtimoiy va gumanitar yordam koʻrsatish jarayonida ularga nisbatan noxolislikka yoʻl qoʻyish holatlari.

ni oldini olish tizimining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda fuqaro muhofazasi tuzilmalarini Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-iyundagi 369-son qarori bilan tasdiqlangan “Oʻzbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi tuzilmalari va ular tuziladigan tashkilotlarni belgilash tartibi toʻgʻrisidagi nizom hamda tuzilmalarni moddiy-texnik vositalar bilan taʼminlash (tabellalashtirish) meʼyori” asosida qutqaruv-qidiruv asbob-anjomlari va vositalari bilan taʼminlash maqsadida, har yili tegishli rejaviy xaridlar amalga oshiriladi. Xaridlar jarayonlarida shaffoflikni taʼminlash, sotib olinadigan tovar va xizmatlar narxi bilan oʻrtacha bozor narxi oʻrtasidagi tafovut belgilangan chegaradan oshib ketmasligiga erishish, shuningdek, korrupsion sxemalarga yoʻl qoʻymaslik uchun barcha xaridlar “cooperation.uz” elektron kooperatsiya portali hamda “e-dukon” elektron doʻkonlari orqali haqqoniy raqobatbardoshlik tamoyillariga tayangan holda amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-fevraldagi 137-son qarori bilan tasdiqlangan “Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moliyaviy va moddiy resurslar zaxiralarini yaratish, ulardan foydalanish va ularni qayta tiklash tartibi toʻgʻrisidagi nizom” asosida korxona negizida favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish uchun moddiy resurslar zaxiralarini yaratish yuzasidan amalga oshiriladigan xaridlar ham yuqoridagi tamoyillarga muvofiq tashkil etilmoqda. “Navoiyuran” DK tomonidan OYoXTTEM hamda gidrometeorologiya markazlari taklif etayotgan xizmatlarni sotib olish Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 18-fevraldagi 102-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat xaridlarida yagona yetkazib beruvchilar reyestriga kiritish boʻyicha davlat xizmatlarini koʻrsatish maʼmuriy reglamenti” asosida shakllantiriladigan yagona yetkazib beruvchilar reyestri

orqali amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, korxona balansidagi yongʻin oʻchirgichlarni tekshirish, taʼmirlash va ularni qayta quvvatlash xizmatlarini amalga oshirish uchun pudratchi sifatida yongʻinga qarshi kurash jamiyatlari “cooperation.uz” elektron kooperatsiya portali orqali haqqoniy tender asosida tanlab olinmoqda.

Favqulodda vaziyatlarning ehtimoliy oʻchoqlarida jabrlanganlarga qidiruv-qutqaruv, tibbiy, ijtimoiy va gumanitar yordam koʻrsatish Oʻzbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish boʻyicha yagona davlat tizimining muvofiqashtiruvchi organi hisoblangan Favqulodda vaziyatlar vazirligi hamda uning hududiy va obyekt darajasidagi quyi boʻgʻinlari tomonidan amalga oshiriladi. Mustaqillik yillarida sohaning zarur meʼyoriy-huquqiy bazasi shakllantirildi, favqulodda vaziyatlarning oldini olish, profilaktika ishlari kuchaytirish va ularning oqibatlarini bartaraf etish boʻyicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, favqulodda vaziyatlar davrida inson, xususan ishchi-xodimlar huquqlarini taʼminlash, kamситish holatlarining oldini olish, nazorat mexanizmlarini kuchaytirish hamda xalqaro tajribani oʻrganish va joriy etish dolzarb vazifalardan biri boʻlib qol-

moqda. Oʻzbekiston Respublikasining 2022-yil 17-avgustdagi “Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish toʻgʻrisida”gi Qonuni 4-bob 16-moddasining birinchi qismiga asosan, fuqarolar favqulodda vaziyat roʻy bergan hollarda hayoti, sogʻligʻi va shaxsiy mol-mulki muhofaza qilinishiga, shuningdek, davlat boshqaruvi organlari va tashkilotlarning aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish uchun moʻljallangan boshqa mol-mulkidan foydalanish huquqiga ega.

Xulosa qilib aytganda, favqulodda vaziyatlarda inson huquqlarini taʼminlash masalasi nafaqat ayrim shaxslar manfaati, balki jamiyat barqarorligi va rivojlanishini taʼminlash nuqtai-nazaridan ham muhim ahamiyatga egadir. Xalqaro Mehnat tashkilotining konvensiyalarida belgilangan xalqaro huquqiy asoslar fuqarolarni (ishchi-xodimlarni) irqi, jinsi, yoshi, nogironligi yoki boshqa xususiyatlaridan qatʼi nazar, hatto yirik favqulodda vaziyatlar, tabiiy ofatlar va pandemiyalar kabi inqirozlar davrida ham adolatsiz munosabatlardan himoya qilish uchun zarur mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Sh.IKROMOV,
“Navoiyuran” DK Favqulodda vaziyatlar xizmati boshligʻi.



NKMK ma'muriyati va kasaba uyushmasi Kengashi tashabbusi bilan har yili faxriylar o'rtasida mini-futbol bo'yicha "NKMK ochiq turniri" o'tkazib kelinadi. O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi unga respublika darajasidagi turnir maqomini berganligi tadbirning ahamiyatini yanada oshirdi.



Bu yil mazkur an'anaviy turnir O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 34 yilligiga bag'ishlab o'tkazildi. Turnirning Navoiy shahridagi "So'g'diyona" o'yinohida bo'lib o'tgan ochilish tantanasida "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Q.Sanaqulov musobaqa ishtirokchilari bo'lgan faxriylarga bellashuvlarda g'alabalar yor bo'lishini tiladi. Yashil maydonda Navoiy kon-metallurgiya kombinati, Andijon, Buxoro, Jizzax va boshqa viloyatlarning 17 ta jamoasi faxriy sportchilari g'oliblik uchun to'p surishdi.


Rossiya Federatsiyasining "Volna" jamoasining qatnashganligi uning mavqeini yanada oshirdi. Futbol musobaqasi keskin va murosasiz sport kurashlari ostida o'tdi. Yakuniy natijalarga ko'ra, Rossiya Federatsiyasining "Volna" jamoasi faxrli birinchi o'rinni qo'lga kiritdi. Buxoro viloyatining "Vobkent" va "Buxoro" jamoalari ikkinchi va uchinchi o'rinlarga sazovor bo'lishdi. G'oliblarga NKMK xodimlari kasaba uyushmasi Kengashi tomonidan diplom, medal va qimmatbaho sovg'alar topshirildi.

Shohruh TURDIYEV.
Muallif olgan suratlar.

Inson qadri

HAR BIR MUROJAAT E'TIBORDA

Jamiyatda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini qabul qilish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Markaziy kon boshqarmasida ham Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash xizmati tashkil etilgan.



Mazkur xizmatning asosiy vazifasi jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan MKB rahbariyatiga yozma ravishda, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, Xalq qabulxonalari, Zarafshon shahar hokimligi va boshqa tashkilotlardan kelib tushadigan ariza, shikoyat, takliflarni qabul qilish, ro'yxatga olish, kon boshqarmasi rahbariyati tomonidan ko'rib chiqilishi uchun kiritish hamda ko'rib chiqilgandan so'ng javob xatlarini yuborish, shuningdek, murojaatchilarning shaxsiy va boshqa masalalar bo'yicha qabullarini tashkil etishdan iborat. – Xodimlarimiz tomonidan har oyda tizimda ishlayotgan konchi va metallurglar, turli kasbdagi ishchi-xodimlar bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqotni yo'lga qo'yish, ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlar-niing oldini olish, bo'linmalarda yechimini kutayotgan masalalarni joyida o'rgangan holda tez-korlik bilan hal etish maqsadida, kon boshqar-masi ma'muriyati, tegishli soha vakillari, kasaba uyushmalari raislari ishtirokida ommaviy sayyor qabullar tashkil etilmoqda, – deydi kon boshqar-masi Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaat-lari bilan ishlash xizmati boshlig'i Dilafruz Bek-

nazarova. – Hech bir murojaat e'tibordan chetda qolgani yo'q. Rahbar tomonidan yechim topish imkoniyati borlari joyida hal etilayotgan bo'lsa, ma'lum vaqt, atroflicha o'rganishni taqozo eta-digan murojaatlar hal etilishi uchun mutasaddi rahbarlarga tegishli topshiriqlar berilmoqda. O'tgan 2024-yilda murojaatlar bilan ishlash xizmatiga jismoniy va yuridik shaxslar tomoni-dan 1619 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, shun-dan, 561 tasi O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining Virtual qabulxonasi va Xalq qabulxo-nasi tomonidan, 1058 tasi esa yozma va og'zaki murojaatlar shaklida kelib tushgan. Joriy yilning sakkiz oyi davomida xizmatimiz-ga jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan 1778 ta murojaat kelib tushdi. Mazkur murojaatlarining 110 tasi ijobiy hal qilinib, 1436 tasiga tushuntirish va 184 tasiga esa huquqiy tushuntirishlar beril-gan, 48 tasining ijrosi nazoratga olingan. Jum-ladan, "Muruntov" koni ekskavator mashinisi G'iyos Rabbimovning toifasini ko'tarish bo'yicha, 2-gidrometallurgiya zavodi xodimi Bobur Bek-po'latovning moddiy yordam ajratish, Zarafshon Ta'mirlash mexanika zavodi tokari Fazliddin Ab-dualimov oilaviy sharoiti sababli ishini Janubiy kon boshqarmasiga ko'chirish, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti talabasi Mahmud Musurmonovning amaliyot o'tash, Sux-rob Asadov va Sayfiddin Islomovlarning ishga kirish tanlovida ishtirok etish hamda Sarvinzo Adizovanning O'zbekiston Respublikasi Prezi-dentining Virtual qabulxonasiga qilgan murojaat-lari ijobiy hal qilingan. Murojaatlar ortida odamlarning orzu-o'ylari, quvonch-g'amlari, tashvishlari yotadi. Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash xizmati ana shu mas'uliyatni anglagan holda ariza yoki shikoyatlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmay, ishchi-xodimlarning manfaatlarini himo-ya qilish, ularning talab va ehtiyojlarini ta'min-lash yo'lida astoydil harakat qilmoqdalar. Ushbu xizmatning samarali faoliyati yuritishi tufayli kon boshqarmasida qonun ustuvorligi ta'minlamoq-da va inson qadri ulug'lanmoqda.

Aziza IRISOVA.

Bugunning gapi

XON ATLAS – MILLIYLIK RAMZI

Har yili mamlakatimizda xotin-qizlar ishtirokida "Xon atlas" oyligini o'tkazish an'anaga aylangan. Xon atlas, adras va beqasam matolardan yaraigan dilbar ayollarimiz egnida yanada chiroy ochib, o'zligimizni, milliyligimizni anglatadi. Bu yilgi oylik doirasida ham Navoiy kon-metallurgiya kombinati va uning barcha bo'linmalarida mehnat qilayotgan dilbar va go'zal hamkasblarimiz faol ishtirok etishmoqda.

Darhaqiqat, milliyligimiz ramzi bo'lgan bu ma-toning betakror va yorqin jilolarda aks etishi inson qalbiga zavq, havas bag'ishlaydi. Zero, bu an'ana-lar zamarida xalqimizning ko'p ming asrlik o'tmishi, urf-odat va an'analari, estetik qarashlari, shuning-dek, o'ziga xos xususiyatlari mujassamdir Joriy yilning sentabr oyida "Navoiy KMK" AJ bo'linmalarida "Xon atlas malikasi", "Milliy liboslar ko'rgazmasi", milliy ijodiy g'oyalar asosidagi turli



ma'naviy tadbirlar va davra suhbatlari tashkil etilayotgani, milliy kiyimni kiyish keng ommalasha-yotgani, hech shubhasiz, qadriyatlarimizga bo'lgan hurmat ramzidir.

Shu bilan birga, "Xon atlas" oyligidan ko'zlangan maqsad – o'zbek milliy qadriyatlari, urf-odatlarini yanada mustahkamlash, boy madaniy an'ana-larimizni namoyish etish, xotin-qizlar o'rtasida milliy liboslarni keng targ'ib etishdan iboratdir.

Nigora AMONOVA,
Gender tenglik va inklyuzivlik xizmati bosh mutaxassisi.

Tibbiyot

Inson uchun bebaho boylik, bu – sog'lik-salomatlikdir. Har qanday kasallikni davolashda turmush tarzini o'zgartirishga qaratilgan usul muhim sanaladi.

Eng katta boyligimiz - salomatlik haqida so'z borar ekan, barchamiz sog'lom turmush tarzining beshta asosiy shartiga amal qilishimiz za-rur. Bular, eng avvalo, to'g'ri ovqat-lanish, jismoniy faollik, zararli odat-lardan saqlanish, mehnat qilish va faol dam olishni to'g'ri shakllantirish hamda gigiyenik ko'nikmalardir.

Tibbiy ko'rik, bu – shunchaki qon bosimini o'lchash uchun terapevt huzuriga nomiga borib-kelish emas. U sog'liqni har tomonlama baholash bo'lib, shifokor bilan ochiq suhbat, sog'ligidan shikoyat va kasallik ta-rixini o'rganish, jismoniy ko'rik, tah-lillar va asbob-uskunalar yordamida diagnostika o'tkazishni qamrab ola-di. Maqsad, yashirin yoki endigina boshlanayotgan kasalliklarni aniqlash, shuningdek, surunkali kasallik-larning rivojlanish xavfini baholash hisoblanadi.

Ayniqsa, yurak-qon tomir, endok-rin va onkologik kasalliklar belgilar-siz kechadi. Muntazam tekshiruvlar ularni davolashda eng samarali bo'lgan erta bosqichda aniqlash imko-nini beradi. Kasallik qanchalik erta



aniqlansa, og'ir oqibatlarining oldini olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi.

"Zafarobod" tibbiyot-sanitariya qismi poliklinikasi 150 ta qatnovga mo'ljallangan bo'lib, zamonaviy tib-biy uskunalar bilan ta'minlangan. Jumladan, exoyensefalograf, ko'z kasalliklarini aniqlashda eng so'nggi rusumdagi tonometr, oftalmoskop, EKG, ultratovush apparati, raqamli rentgen diagnostika uskunasi, ezo-

fagogastroduodenoskop, zamonaviy LOR uskunasi, audiometrik as-boblar bilan jihozlangan. Bularning samarasi o'laroq aholimiz tuman, shahar markazlariga bormasdan, ularga shu yerning o'zida tibbiy xiz-mat ko'rsatib kelinmoqda.

Ayni paytda 7 ming nafardan ortif kishiga tibbiy yordam ko'rsatilyapti. "Navoiyuran" davlat korxonasi "Za-farobod" kon boshqarmasi hamda "NKMK jamg'armasi" davlat muas-sasasi "Zafarobod" hududiy bosh-qarmasi ishchi-xodimlari, tug'ruq yoshdagi xotin-qizlar davriy tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, aniqlangan ka-salliklari bo'yicha nazoratga olinib, sog'lomlashtirilmoqda.

Mazkur jamoalar va ularning far-zandlari hamda Navoiy kon-metal-lurgiya kombinati faxriylariga bepul tibbiy xizmat ko'rsatilyapti. Shuning-dek, tibbiyot-sanitariya qismimizga birkiritilmagan aholi hamda chet el-liklar bilan birgalikda faoliyat ko'rsa-tayotgan ishchi-xodimlarga tuzilgan shartnomaga muvofiq, pullik tibbiy xizmatlar yo'lga qo'yilgan.

"Zafarobod" kon boshqarmasi

bo'linmalaridagi tibbiy punktlarida ishchi-xodimlar sog'ligi doimiy na-zoratda bo'lib, sog'lom turmush tar-ziga rioya qilish, to'g'ri ovqatlanish bo'yicha targ'ibot ishlari olib boril-yapti.

Tibbiyot-sanitariya qismimizda aholi salomatligini saqlash, malakali tibbiy xizmatni yo'lga qo'yish bora-sida qator ijobiy ishlar amalga oshi-rilmoqda. Salomatlikni targ'ib qilish va kasalliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ham fao-liyatimizda ustuvor yo'nalish kasb etyapti.

Aholi orasida tibbiy madaniyat-ni oshirish ko'proq insonning ichki tarbiyasi hamda o'z salomatligiga bo'lgan e'tibordan boshlanadi. Sa-lomatligiga befarq bo'lmasdan uni mustahkamlagan inson sog'lom tur-mush tarziga mos hayot kechiradi va turli xastaliklardan o'zini himoya qila oladi.

Abduaziz G'ULOMOV,
"Zafarobod"
tibbiyot-sanitariya qismi poliklinikasi mudiri.

"101" xabar qiladi

HAYOTIMIZ O'Z QO' LIMIZDA!

Yurtimizda 15-sentabrdan 15-oktabrgacha "Yong'indan ogohlik" oyligi o'tkazilmoqda. Inson olovni ixtiro etgandan buyon, uni o'z izniga bo'ysundirishga intilib, undan o'z ehtiyojlari uchun foydalanish yo'llarini izlab kelmoqda. Insonning ijtimoiy, siyosiy ongi rivojlanishi bilan olovdan foydalanishning usullari ham takomillashib bormoqda. Hozirgi zamon ilg'or texnologiyasini, hatto kosmik qurilmalarni barpo etishni olov ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Olovdan to'g'ri maqsadda foydalanilsa, u in-songa xizmat qiladi. Olovga nisbatan bepisand-lik, e'tiborsizlik, sovuqqonlik bilan qaralgan taq-dirda, u bir pastda ayovsiz yovga aylanib ketishi mumkin. Uning oldini olish uchun olovdan to'g'ri foydalanish tartib-qoidalariga qat'iy rioya qilish lozim.

Yigirmanchi asr boshlarigacha olovdan foy-dalanish imkoniyatlari va yong'in kelib chiqish sabablari tor doirada bo'lgan. Fan-texnikaning ri-vojlaniishi bilan olovdan foydalanish imkoniyatlari jadallik bilan o'sishi yong'in kelib chiqishlarining ko'payishiga olib keldi. Yong'in fuqarolarning ha-yoti, sog'ligi, davlat hamda jamiyat manfaatlariga ziyon va moddiy zarar yetkazuvchi tilisiz yovdir.

Yong'in har qanday davlatning iqtisodiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli dunyodagi barcha ilg'or davlatlarda yong'inga qarshi kura-shishning qonun-qoidalari ishlab chiqilgan. Jum-ladan, O'zbekiston Respublikasi hukumati to-monidan aholi yashash joylarida yong'in xavfsizligi-ni ta'minlashga qaratilgan qator qarorlar qabul qilingan. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi yong'in xavfsizligi tizimini takomil-lashtirish to'g'risida"gi qarorida "Yong'in xavfsiz-ligini ta'minlash davlat miqyosidagi asosiy vazifa

deb, yong'in xavfsizligini ta'minlamaslik davlat-ning strategik qiziqishiga putur yetkazuvchi iqt-i-sodiyot xavfsizligini ta'minlamaslik sifatida ko'rib chiqilsin", deb belgilab qo'yilgan. Shu sababli, fuqarolar orasida, korxona va tashkilotlarda yon-g'in xavfsizligi masalalarini targ'ibot-tashviqot qil-ish maqsadga muvofiqdir.

Profilaktika va nazorat bo'linmasi xodimlari Navoiy kon-metallurgiya kombinati maskanlari-da yong'in xavfsizligini ta'minlashga ixtisoslash-gan bo'lib, bunday mas'uliyatli vazifani bajarish borasida olib borilayotgan ishlar kombinat bo'lin-malarining bir maromdagi ish faoliyatini ta'min-lashda o'z samarasini bermoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil qilish markazi o'zining geografik hududi jihatidan viloyatlardagi turdosh sohalardan keskin ajralib turadi. Hozir-gi kunda markazning hududiy yong'in xavfsizli-gi qismlari Navoiy viloyatidan tashqari, Buxoro, Samarqand, Jizzax va Xorazm viloyatlarida joy-lashgan bo'lib, kombinat tasarrufidagi maskanlar ortishi bilan boshqarma quyil tizimlarining xizmat ko'rsatish xaritasi kengayib bormoqda.

Kombinat tog'-kon texnikalarini va texnologi-yalarini yong'indan mustahkam himoya qilish,

sodir bo'lgan yong'inlarni va falokat oqibatlarini tezkorlik bilan bartaraf etish yong'in xavfsizligi boshqarmasi shaxsiy tarkibining asosiy vazifa-sidir.

Boshqarma shaxsiy tarkibi Navoiy kon-metal-lurgiya kombinati rahbariyati bilan hamkorlikda korxona maskanlarida yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'in xavfsizligi qismlarining moddiy texnikaviy bazasini mustahkamlash bo'yicha katta hajmdagi ishlarni bajarmoqda.

Kombinat, kon boshqarmalari rahbarlari to-monidan maskanlarning yong'in xavfsizligini ta'minlash, yong'inni aniqlovchi, xabar beruvchi zamonaviy moslamalar, qurilmalar va birlamchi yong'in o'chirish vositalari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratmoqda. Yong'in xavfsizligi ho-latini takomillashtirish, ahvolni doimiy tahlil qilib borish va mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish hamda sodir bo'lgan yong'in falokatlarini tezkorlik bilan bartaraf qilish choralarini ko'rish maqsadi-da, barcha maskanlarda yong'in texnik hay'atla-ri, ko'ngilli yong'in o'chirish drujinalari va boshqa jamoat tashkilotlari faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Navoiy kon-metallurgiya kombinatining aso-siy boyligi bu insonlar va ularning xavfsizligi-ni ta'minlash asosiy maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun yong'in xavfsizligi boshqarmasi muhan-dis-inspektorlari maskanlar rahbarlari bilan ham-korlikda ishchi va xizmatchilar o'rtasida yong'in xavfsizligi qoidalari targ'ibot-tashviqotini yanada kuchaytiradilar.

Otabek BOYNAZAROV,
Elyor SAMATOV,
JKB va NSM OYOXTEB P va NB inspektorlari.